

*Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan Davlat
umumta'lim maktabining Ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi Nasirova Ziroatning adabiyot fanidan
dars ishlanmasi*

Sana:

Sinf: 6

Fan: Adabiyot.

Mavzu: Erkin Vohidovning “O’zbekim” qasidasi.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: O’quvchilarda qasidani ifodali o’qish ko’nikmasini shakllantirish, og’zaki nutqini o’stirish, ularni ijodiy va mustaqil fikrlashga o’rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: O’quvchilarda ona Vatanlariga bo’lgan muhabbatlarini oshirish, tarixga hurmat bilan qarash, ajdodlar ruhini yod etish, Vatanni yanada obod qilish hislarini shakllantirish, ular ongiga milliy g’urur, iftixor tuyg’usi va vatanparvarlik ruhini singdirish.

Rivojlartiruvchi maqsad: O’quvchilarning nutq madaniyatini oshirish va mustaqil fikrlashga o’rgatish.

Darsning jihozi: Erkin Vohidov portreti, O’zbekiston Respublikasining geografik kartasi, shoir ijodiga bag’ishlangan fotolavhalar, mavzuga mos bukletlar va referatlar, darslik, “Ozbekim” qo’shig’i yozilgan disk, slayd.

Dars tipi: Aralash,

Dars turi: Bahs-munozara va noan’anaviy.

Dars o’tish uslublari: “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Klaster”.

Dars jarayoni: Tashkiliy qisimdan so’ng o’quvchilar bilan birgalikda guruhlarda ishlash uchun amal qilinishi lozim bo’lgan qoidalar ishlab chiqiladi:

- 1.Intizom.
- 2.Faollik.
- 3.Vaqtga rioya qilish.
- 4.Asosli va mantiqiy fikr bildirish.
- 5.Fikrni takrorlamaslik.
- 6.O’zaro hurmat
- 7.O’n qo’l qoidasi.

Darsning borishi: Dars quyidagi kirish so’zi bilan boshlanadi. Bizning Vatanimiz nomi tarix sahifalariga oltin harflar bilan bitilgan. Bu Vatan jahonga o’zining mashhur siymolarini bergan va ular bilan faxr etadi. Ming afsuski, sobiq sho’ro tuzumi davrida butun dunyoni larzaga solgan ulug’ zotlarning o’zgalarga qaram bo’lib o’zligini yo’qota yozdi. XX asrning 50, 60-yillarida Erkin Vohidov mudroq ko’zlarni uyg’otuvchi “Ozbekim” qasidasini yozdi.

Sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linadi.

1-guruh: "O'zbekim"

2-guruh: "Haqiqat"

3-guruh: "Ravshan so'z"

Shu so'zdan so'ng "O'zbekim" qo'shig'i eshittiriladi.

Guruhlarda ishlash: *har bir guruh o'z guruhining nomini sharhlab boradi.*

"O'zbekim" guruhi o'quvchilari she'rda faxr-iftixor tuyg'usi ifodalangan misralarni sharhlaydilar.

*1-o'quvchi: Tarixingdir ming asarlar ichra pinhon o'zbekim,
Senga tengdosh Pomir-u oqsoch o'zbekim.*

Bu misra bizga, biz kechagina paydo bo'lgan xalq emas, balki tarixi ming yillardan ortiq ko'hna xalq ekanligimizga ishoradir.

*2-o'quvchi: So'ylasin Afrosiyob-u, so'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida bitta marjon o'zbekim.
Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Farob avlodidan,
Asli nasli balki o'zluk balki Tarxon, o'zbekim.*

Bu misralarda shoir butun dunyo madaniyatining beshigi, bizning bobolarimiz tebratganligini va buyuk ajdodlarimiz: Beryniy, Xorazmiy, Farobiylar, Mirzo Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Mashrablarning avlodlari ekanligimiz bilan faxirlanamiz.

*3-o'quvchi: Shoir
Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek Ko'ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga qo'ydi Narvon o'zbekim.*

Bu misralar orqali yulduzlarning sirli olamini kashf etib Ko'ragoniy jadvalini tuzish va uni jahon ilmu faniga taqdim o'zbekning Mirzo Ulug'bekdek o'g'liga nasib qilgani bilan faxrlangan.

So'ngra "Haqiqat" guruhi o'quvchilari qasidada aks etgan tarixiy haqiqatni quyidagicha tahlil qiladi.

*1-o'quvchi: O'tdilar sho'rlik boshingdan o'ynatib shamshirlarin,
Necha qon, necha sulton, necha ming xon o'zbekim.*

O'zbek xalqi juda ko'p qonli urushlarni boshidan kechirgan. Bu so'zlar mana shu haqiqatga ishoradir.

2-o'quvchi: "Sen Muqanna, sarbador sen" so'zlarida esa VII asrda istilosiga qarshi bosh ko'targan, o'zini olovga tashlagan Muqanna haqida gap ketyapti.

3-o'quvchi: She'rda "Yig'ladi furqatda Furqat, ham muqimlikda Muqim" misralari orqali Furqatning o'z yurti Qo'qondan chiqib ketib o'zga yurtda

panoh topgani, Muqimiyning esa o'z Vatanida yashasa ham tole topmaganligi aks ettirilgan.

Shundan so'ng "Ravshan so'z" guruhiga navbat beriladi. Ular she'rdagi yashiringan so'zlarga ta'rif beradilar.

1-o'quvchi: Qasidadagi "So'ylasin O'rxun xati" iborasi orgali shoir O'rxun Enasoy obidalariga ishora qilib o'zbek xaiqi tarixining qadimiyligini ko'rsatgan.

2-o'quvchi: "Sirli osmon toqiga ilk qo'ydi navron o'zbekim." misrasida shoir osmonning toqi bo'lmaydi, biroq unga Narvon ham qo'yib bo'lmaydi, lekin Mirzo Ulug'bek bobomiz ilk bor osmon ilmini o'rganib, yulduzlar olamini kashf etgani hammamizga ayon demoqchi. Ana shu fikr "Sirli osmon toqiga ilk qo'ydi Narvon, o'zbekim" misrasida go'zal tashbeh orqali yoritib berilgan.

3-o'quvchi: "So'ylasin Afrosiyob-u" birikmasi miloddan avvalgi VII-VIII asrda bunyod etilgan Afrosiyob shahri haqida bo'lib u hozirgi Samarqandning sharqiy chekkasida joylashgan.

Bahs –munozara:

1. "O'zbekim qasidasining el orasida bu qadar mashhur bo'lib ketish sababi nimada deb oylaysiz?"

2. Shoir O'zbekning tarixi qadimiyligiga yana qanday misralarda qanaqa dadillar orqali ifoda etadi?

3. "Davrlar zulmiga va lekin bir umr bosh egmading" degan fikrning she'rdagi isboti haqida so'zlang.

Klasterda ishlash: Shoirning hayoti va ijodi bo'yicha guruhlar ishining taqdimoti. Har bir guruhdan 1 ishtirokchi o'z guruhining javoblarini barcha o'quvchilarga bayon etadi. Boshqa guruh a'zolarida fikrlar yoki e'tiroflar bo'lsa, ularga o'z munosabatlarini bildirish imkoniyati beriladi.

1. Erkin Vohidov 1936-yilning 28-dekabrda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tavllud topgan.

2. 1960 O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakulteti tugatadi.

3. Birinchi she'ri "Tong nafasi" nomi bilan 1961-yilda nashr etiladi.

4. Erkin Vohidov mohir tarjimon.

5. U "O'zbekiston xaiqi shoiri" va "O'zbekiston qahramoni" unvonlariga ega.

Baholash: O'quvchilarning ifodali o'qish, guruhlarda ishlash, taqdimot jarayonida muhokamada ishtiroki, erkin va mustaqil fikirlashi kuzatiladi va baholanadi.

Uyga vazifa: "O'zbekiston-mening Vatanim" mavzusida insho yozish.

